



TO'MARISNING TUMORIN TAQQAN AYOL O'LMAYDI YOXUD HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDAN CHIZGILAR



JALILOVA MUHLISA

Samarqand davlat universiteti
4-bosqich talabasi
jalilovamuhlisa23@gmail.com

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp87-89>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijodkor Halima Xudoyberdiyevaning adabiy olamidagi, ijodidagi o'ziga xosliklar, she'rlaridan asosiy o'rinni egallagan mavzular, so'z qo'llash mahorati kabi xususiyatlar shoira she'rlari orqali mustaqil tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yozuvchining tili va uslubi, Nodira, Uvaysiy, Zulfiyaxonim, ayol portreti, o'lim, To'maris, chaqiriq, ta'sirchanlik, individuallik, o'ziga xos uslub.

Ba'zan insonning boshqa bir insonni tushunishi qiyinday tuyuladi. Shunday vaqtlar ham bo'ladiki, kishi hatto o'z ko'nglini ham sharhlay olmaydi. Nega shunday ekan? Sababi, ko'ngilni ham qolipga solib bo'lmasligidir. Ijodkorlar, shoirlar, so'z ustalari - barchasi so'z bilan ish ko'radi. So'zni muqaddas biladi, uvol qilmaydi. Aytishingiz mumkin, yozuvchi shoir bo'lganidan keyin, albatta, so'zni qadrlaydi-da! Darhaqiqat, siz haqsiz. Lekin men so'z qadrini o'z umri qadri bilan bir pog'onada yanada yuksakka ko'tara oladigan ijodkorlar qatoriga Halima Xudoyberdiyevani ham kiritmoqchiman. Boisi, shoiraning so'z va uning inson hayotidagi o'rni haqidagi har bir yozgan misrasi uning haqiqatda so'z bilan sadoqatli yashaganligidan dalolat beradi. Jumladan, shoira o'zining bir she'rida:

Sarg'ayaman, qaddu-belim dol qilaman men,
Azoblarda umrimni uvol qilaman men.
Yaralangan tik arslonning shiddati bilan
So'z mulkini bir kun ishg'ol qilaman men.

Yoki:

Ro'zi mahshargacha men bilan ketar,
Siyoh-u so'z bilan xayrlashmayman.(2.220)

Shoira ijodida Navoiyga, Nodiraga, Uvaysiyga, Zulfiyaxonimga izdoshlik sezilib tursa-da, lekin ayol portretini chizishdagi o'ziga xosligi, ruhiyati kuchli ekanligi bilan boshqa shoirlardan ajralib turadi. (1.2) Uning ijodida mavzular xilma-xil. Asosiy o'rinni yurt, ayol, farzand, yor kabi mavzular egallaydi. Shoira ijodidagi ayollarni

madh etgan nozik chizgilar o'zgacha, sevgini tarannum etgan misralar o'zgacha, onani madh etgan satrlar o'zgacha, yurtni sevis, vatanparvarlikka da'vat etgan so'zlar o'zgacha. Uning she'rlarida To'maris ham, Oybarchin ham, Kumush ham bor. Unda butun dunyo onalari, ayollari bor. Ha, u ayollarni har qadamda madh etdi, har qanday vaziyatda ularni muqaddassan, deya ayta oldi. U bir she'rida:

Ayol o'tib borar... sho'x yurib,
Shamollarda soch yoygan ayol.
Ich-ichida yo'lbars o'kirib,
Sirtan mayin jilmaygan ayol.
Sen so'rama, men ham aytmayin...(2.58)

U onaning, ayolning orzu-havaslarini, armonlarini, o'ylarini, inj-u hislarini shunday nozik gavdalantirdiki, har o'qiganingizda yo onangizni, yo singlingiz, opangizni o'ylay ketasiz. Uning she'rlari ana shunday tirik edi. Shoiraning aksariyat she'rlarida Allohga murojaat, undan najot istash ko'p uchraydi. Negaki inson eng og'ir damida ham, eng go'zal kunida ham Yaratganni eslashi lozim. Chunki yagona suyanch - Alloh. Bu dunyoda hamma tog'lar qulaydi, suyanch ALLOHGA.

U "Ba'zan yonimdagi tog'" she'rida shunday murojaatni keltirgan:

Toshlariyam yutoqqan
Holim tayin, Xudoyim -
O'zing suya. Shu toqqa
Suyanmayin Xudoyim.
Yoki yana bir she'rida:

Yo Ra-a-ab, o'lim-ku bu ishq degani, a
Nahot har hujayrang egallab borsa.
Nahot har chin oshiq ishq deganida,
Peshonasi o'lim gurzisi yorsa.(2.235)

Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida yurt, yurt ishq, vatanparvarlik tushunchalariga alohida to'xtaladi. U "Jon chiqib ketgunicha" sarlavhali she'rida:

Tinch kunda hamma ham otin egarlar,
"Otiladi!" desa "Vatan!" deganlar,
Miq etmay tursa yurt nonin yeganlar,
Ayt, birinchi bo'lib so'z olasanmi? (2.259)

Men vatanparvarman deb, ko'p kekkayma sen, vatan uchun ajdodlaringday kurasha olasanmi, senda Temur, Bobur, Jaloliddin, Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Cho'lpon, Qodiriy qoni bor. Shularga munosib bo'la olasanmi, deb aytmoqchiday tuyuladi go'yo.

Barchamiz kelgan-u, bir kun ketar qush,
O'lim otgan o'qlar bir-bir yetar qush.
O'shanda...
"Vatan",- deb hushli yo behush,
Jon chiqib ketguncha yozolasanmi? (2.260)

She'r yozishni mashq qilish mumkin, raqsga tushishni mashq qilish mumkin, biroq hech o'limni mashq qilib ko'rganmisiz? Shoiramizda "O'limni mashq qildim" deb boshlanuvchi misralar bor.

O'limni mashq qilib
Chiqdim tun b'yi,
Bul kecha shundayin qaro kechadir.

Oftob chiqar yoqqa o'grilgan ko'yi,
Yotsam jon chiqarim,
Oson kechadir. (2.276)

Musulmon odam o'limning haq ekanligini tan olishi iymonni ado etishining bir shartidir. Darhaqiqat, shoirada o'limni tan olish hissi yuqori. U o'limni mashq qildi, har qanday odam ham bunday mardlikka qo'l urolmaydi. U iymoni butun, undan kelib, unga ketishini biladi. Jon oftob chiqadigan tarafga qarab yotsa, oson chiqadi, deydi. Oftob chiqar joy bu uning bu dunyoda qilgan yaxshiliklari, ezgu amallaridir.

Shunda manguликka,
Olingan chekday,
U dunyoga ketgum,
Rozi, xotirjam.
Chunki...
Umrim o'tdi qorong'ulikda,
Chunki
nur izlayman o'larimda ham.(2.276)

Hayot bir xil emas, u baland-pastliklardan iborat. Shoir hayotida ham ayriliq, og'ir yo'qotishlar bo'ldi. Lekin u sinmadi, u to'xtamadi. O'limni, ko'pincha, qora ranglarda tasvirlaymiz. Chunki o'lim - ayriliq, hijron. Biroq shoirada o'limdan ham nur topa olish darajasida kuch bor, matonat bor. O'lim bu dunyoning g'am-anduhidan nafaqat chekinish, balki boqiy dunyoning nurli manzillariga ham yo'ldir, nazarimda. Va nihoyat, shoirada ulkan bir chaqiriq ovozi borki, u yoshlarga, goh onalarga, goh qizlarga, goh yigitlar-u erkaklarga baland ovozda yangraydi.

Onaginam,
Dorilamon kunlar keldi, shafaqlari ol
Bu kunlarga yetganlar bor,
Yetmaganlar bor.
desa, yana bir she'rida esa:
Ey o'g'il, biz siza jonni ichirdik,
Qonimiz ichirdik, qonni ichirdik,
Voz kechdik, shuhrat-u shonni ichirdik,
Qonib ichdingizki, cho'llamagaysiz.(2.250)

Shoir ijodi orqali jo'shqinlik, hayotga muhabbat, insonlarni g'animat bilish, yaqinlarni borida asrash va qadrlash kabi insoniy tuyg'ularni yana bir bor yodga olasiz. Ayol bo'lib yaralganingizga, ojiza bo'lib ham dunyo beshiklarini tebrata olishingizga o'zingizdagi kuchni yana qayta kashf qilasiz. Shoir aytganidek:

To'marisdek oyoqqa qalqqan ayol o'lmaydi!
To'marisning tumorin taqqan ayol o'lmaydi!(2.278)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.G'ofurov. "Halima ruhoniyligi" Xalq so'zi gazetasi., 2019-yil 22-fevral.
2. H.Xudoyberdiyeva., "Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor."she'rlar, Sahhof -2022-yil